



Pedagogik fanlarni integrativ oʻqitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslari

Tursunova Dilnavoz Toʻlqin qizi –

Fargʻona davlat universiteti

“Maktabgacha” taʼlim kafedrasi katta oʻqituvchisi,
pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD),

E-mail: doctortursunova@gmail.com | Tel: +998 91 676 04 94

Komiljonova Zarrina Elyorjon qizi –

Fargʻona davlat universiteti

“Maktabgacha” taʼlim yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati, pedagogik va psixologik asoslari, shuningdek, uning shakllanishida samarali boʻladigan didaktik tamoyillar batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, pedagogik fanlarni integrativ oʻqitish asosida talabalar ning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni, mazmuni, metodik yondashuvlari va amaliyotdagi samaradorligi keng tahlil qilingan. Maqola nafaqat nazariy asoslarni, balki amaliy tadqiqotlar va tajribalarni ham oʻz ichiga olgan.

Kalit soʻzlar: kompetentlik, didaktik asoslar, integrativ, ijtimoiy kompetentlik, pedagogik yondashuv, taʼlim metodikasi, talabalar rivoji, oʻquv jarayoni, pedagogik fanlar.

Дидактические принципы развития социальной компетентности студентов на основе интегрированного преподавания педагогическим наукам

Аннотация. В данной статье подробно раскрыты содержание и сущность понятия социальной компетентности, его педагогические и психологические основы, а также дидактические принципы, способствующие эффективному

формированию компетентности. Кроме того, подробно проанализирован процесс развития социальной компетентности студентов на основе интегративного обучения педагогическим дисциплинам, его содержание, методические подходы и практическая эффективность. Статья охватывает не только теоретические основы, но и результаты практических исследований и опыт применения.

Ключевые слова: компетентность, дидактические основы, интегративный, социальная компетентность, педагогический подход, методика обучения, развитие студентов, учебный процесс, педагогические дисциплины.

Didactic principles of developing the social competence of students on the basis of integrated teaching of pedagogical sciences

Annotation. This article provides a detailed exploration of the content and essence of the concept of social competence, its pedagogical and psychological foundations, as well as the didactic principles that contribute to its effective development. Furthermore, the process of developing students' social competence through integrative teaching of pedagogical disciplines, including its content, methodological approaches, and practical effectiveness, is extensively analyzed. The article encompasses not only theoretical foundations but also practical research findings and applied experience.

Keywords: competence, didactic foundations, integrative, social competence, pedagogical approach, teaching methodology, student development, learning process, pedagogical disciplines.

KIRISH

Jahonda pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida ta'limni tashkil etish va shu asosda talabalar ning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar, ta'limiy dasturlar, metodik ta'minot va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va modernizatsiyalash vazifalari dolzarbik kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarni murakkablashuvi, individualizm dunyoqarashining rivojlanib borishi sharoitida talabalar ning ijtimoiylashuviga qulay ta'limiy muhitni yaratish va shu asosda kasbiy faoliyatda, ijtimoiy munosabatlarda va boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Buning uchun esa pedagogik fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash, metodik ta'minotini modernizatsiyalash masalalari dolzarbik kasb etmoqda.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida talabalar ning ijtimoiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirishning zamonaviy pedagogik usullari, shart-sharoitlari va imkoniyatlari muntazam o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda talabalar ning ijtimoiy munosabatlarda o'z faolligini namoyon qilish, ijtimoiy shaxs sifatida o'z dunyoqarashi va pozitsiyasini qat'iylik bilan ko'rsata olish ko'nikmalarini pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida rivojlantirish samaradorligi xulosa qilinmoqda. Bu esa talabalar ning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil qilishga doir tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish dolzarbikligini anglatadi.

Yangi O'zbekistonda ham "yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish" asosida ularda "vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi,

bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsioniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishqonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" ga doir yangi pedagogik tizimni ishlab chiqish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu orqali talabalarni "axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish" maqsad qilingan. Buning uchun esa, pedagogik fanlarni integrativ o'qitish asosida talabalar ning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, shu bilan birga ijtimoiy majburiyatlarga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishning metodik asoslarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligida ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar orqali, balki bo'lajak kadrlarning ta'lim jarayonida egallagan kompetentsiyalari orqali aniqlanishi ta'kidlanadi.

Kompetentsiya – bu oliy kasbiy ta'lim mazmuni uchun ayniqsa muhim bo'lgan, o'quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, u mutaxassis uchun kasbiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

"Kompetentsiya" lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi. Kompetentsiya – sub'ektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, sub'ektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir. Kompetentsiya inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq "kompetentsiya" atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifodalashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, kompetentsiya bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatlarni kashf etish, shakllantirish va rivojlantirish jarayonining xosilasi hisoblanadi.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, xususan V.Serikov fikricha, "kompetentsiyani shaxsiy o'zini o'zi anglashi, unga hissa qo'shadigan bilim, ko'nikma va ta'limning mavjudligi" sifatida belgilaydi va "kompetentlikni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat" hisoblanadi. Boshqa bir olim V.I.Baydenko fikricha, kompetentsiya deganda "harakatlarning maqsadi va yashash sharoitini e'tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo'lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlilik yoki tayyorgarlik" tushunilishi ta'kidlanadi. Yana bir olim E.F.Zeerning ta'rifiga ko'ra, kompetentsiya deganda, "faoliyatning adekvat me'yoriga aylanadigan, bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivatsion komponentlarni o'z ichiga olgan interaktiv konstruktsiyalar" tushuniladi. Pedagog olimlardan S.E.Shishov va I.G.Agapov fikricha, kompetentsiya shaxsning o'quv jarayonida olingan bilim va tajribaga asoslangan qobiliyatlarini, shuningdek uning harakatga tayyorligini anglatadi.

Kompetentsiyalar shaxsning mustaqilligiga, o'quv va amaliy faoliyatda qo'lga kiritgan muvaffaqiyatiga yo'naltiriladi. Bunday yondashuvni ilgari surgan olimlardan biri V.D.Shadrikov bo'lib, uning so'zlariga ko'ra, kompetentsiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarning tizimli namoyon bo'lishini nazarda tutadigan faoliyat sub'ektining yangi bir turi hisoblanadi.

O'zbekistonda ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni zamonaviylashtirish, integrativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan bir qancha olimlarni tilga olish mumkin. Masalan, B. X. Xo'jaev "kompetentsiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o'rta ta'lim bilan bog'lagan holda ta'rif beradi. U kompetentsiyani "ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib

ketishidir” deb ta’kidlaydi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faol foydalanuvchi va ijobiy natija berayotgan kompetentsiya tushunchasini imkon qadar tahlil qilib va umumlashtirgan holda ushbu tushunchani oliy ta’lim talabasi shaxsiga qaratib quyidagicha izohlash mumkin: “Kompetentsiya” – bu talabaning ma’lum yo’nalishda bilimlarni o’rganish va egallagan bilim, ko’nikma va qobiliyatlarini tizmashtira olish, amaliy faoliyatida samarali, muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo’llay bilishga yo’naltirilgan tayyorgarligidir.

Zamonaviy jamiyatda ro’y berayotgan ijtimoiy o’zgarishlar, ijtimoiy qadriyat sifatida inson shaxsiga e’tiborning kuchayishi ta’lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga nisbatan talablarni ham oshirmoqda, shuningdek, mutaxassislarning ijtimoiy bilim va malakalari hamda ijtimoiy ongi davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo’nalishlariga mos kelishini taqazo qilmoqda. Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashishi, ma’lumotlarni qayta ishlash va olishning yangi shakllarining paydo bo’lishi bilan bog’liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

A.V.Mudrikning fikricha, “ijtimoiylashtirish” (“socialization”) atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F. G. Giddings hisoblanadi. U 1887 yilda o’zining “Ijtimoiylashtirish nazariyasi” (“Teoriya sotsializatsii”) kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma’nosiga yaqin ma’noda ishlatgan: “individdning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir”.

“Ijtimoiy kompetentlik” tushunchasining ko’p o’lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta’lim va tarbiya jarayonida sust qo’llanishini E.F.Zeer terminologik nuqtai nazardan “ziddiyatli voqeliklar” sifatida tavsiflaydi hamda ularni “inson sub’ektiv hayotining real hayot bilan, obyektiv voqelik bilan nomutanosibligi, qarama-qarshiligi” sifatida baholaydi. Shaxsning ijtimoiy kompetentligi shaxsning yaxlit ijtimoiy sifati bo’lib, u ijtimoiy haqiqatni aniq qadrlashni, harakatga ko’rsatma sifatida aniq ijtimoiy bilimlarni, o’z taqdirini o’zi belgilash, o’zini o’zi boshqarish va qoidalar yaratish kabi sub’ektiv imkoniyatlarni o’z ichiga olgan, hayotning asosiy sohalariga (ijtimoiy institutlar, me’yorlar va munosabatlar tizimida) tegishli madaniyat, axloq va qonun darajasiga muvofiq ravishda ijtimoiy texnologiyalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik fanlarni integrativ o’qitish orqali talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslarini aniqlash va samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ijtimoiy kompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy elementlarini aniqlash, pedagogik fanlarni integrativ o’qitishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, talabalar orasida ijtimoiy kompetentligini shakllantirishning didaktik tamoyillari va metodlarini ishlab chiqish hamda o’qitish jarayonida integrativ yondashuv samaradorligini baholash vazifalarini o’z ichiga oladi. Tadqiqot zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar, xususan kompetentsiyalar yondashuvi, ijtimoiy-madaniy o’qitish, integrativ ta’lim, shuningdek ijtimoiy kompetentlikning multidimensiyonal rivojlanishi konseptlariga tayangan. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlar va metodik qo’llanmalar tahlili), empirik usullar (intervyu, so’rovnoma, kuzatuv, test va o’quv vazifalari), pedagogik eksperiment (integrativ dars jarayonida turli pedagogik yondashuvlarni sinovdan o’tkazish) va statistik tahlil (natijalarni kvantitativ va sifat jihatdan baholash) qo’llaniladi. Tadqiqot oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo’nalishidagi talabalar bilan uch bosqichda amalga oshiriladi: tayyorlov bosqichida nazariy materiallar o’rganilib, talabalar boshlang’ich ko’nikmalar bilan tanishtiriladi; asosiy bosqichda pedagogik fanlarni integrativ o’qitish jarayonida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish bo’yicha darslar, loyihalar va interaktiv mashg’ulotlar o’tkaziladi; baholash va tahlil bosqichida talabalar faoliyati monitoring qilinib, olingan natijalar statistik va sifat jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish uchun integrativlik (turli pedagogik fanlarni birlashtirib, talabalarning bilim va ko’nikmalarini kompleks

rivojlantirish), faollik (talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga jalb qilish), individual yondashuv (har bir talabani ijtimoiy fazilatlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlariga moslashtirish), reallik (ta'lim jarayonida real ijtimoiy vaziyat va masalalarni qo'llash) hamda baholash va refleksiya (talabalar faoliyatini tizimli baholash, o'z-o'zini anglash va takomillashtirish imkoniyatini yaratish) tamoyillari asos qilib olinadi. Kutilayotgan natijalar sifatida talabalar ijtimoiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi integrativ metodik yondashuvlar aniqlanadi, o'qitish jarayonida ijtimoiy kompetentlikni baholash mezonlari ishlab chiqiladi, pedagogik fanlarni integrativ o'qitish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi oshadi va talabalar kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur kompetentsiyalarni egallaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turli xil ilmiy yondashuvlarning tahlili ijtimoiy kompetensiya tushunchasining ko'p qirrali va murakkab mohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, I.E.Riske va boshqalar uni kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida, D.S.Melnikova mos muloqotni amalga oshirish qobiliyati sifatida, P.V.Sysoev esa ijtimoiy bilimlar majmui, xulq-atvor modellari, urf-odatlar va an'analar tizimi sifatida izohlagan. Ushbu ilmiy qarashlarning tahlili ijtimoiy kompetensiyaning integrativ mohiyatini ochib berdi va bo'lajak pedagoglarda mazkur kompetensiyaning shakllantirish jarayonida uning funksional hamda mazmuniy asoslarini aniq belgilash zarurligini ko'rsatdi.

Ijtimoiy bilim mohiyatan inson va jamiyat to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarning murakkab tizimini anglatib, u ijtimoiy muammolarni anglash, ijtimoiy hodisalar mohiyatini tushunish va ularni real hayotiy amaliyot bilan solishtirish jarayoni orqali mustahkamlanadi. Inson ekologiyasi, ijtimoiy antropologiya, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy lingvistika, ijtimoiy ish, ijtimoiy informatika, ijtimoiy ekologiya, ijtimoiy menejment kabi yo'nalishlar mazkur yangi bilimlar sohasining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bu ro'yxat to'liq bo'lmasada, ular tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar kesishmasida shakllanayotgan ijtimoiy fanlar majmuining rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Ijtimoiy ta'lim esa fundamental va amaliy ijtimoiy fanlar asosida olingan bilimlarni to'plash, saqlash, tarqatish va uzatishga qaratilgan jarayon bo'lib, u insoniyat tamadduni davomida shakllangan ijtimoiy tajribani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy ta'limning mazmuni keng bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki shaxsning ijtimoiy muhitda moslashishi, ijtimoiy rollarni egallashi, jamiyat bilan samarali muloqotga kirisha olishi kabi amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Bir qator tadqiqotchilar ijtimoiy ta'lim doirasida umumiy ijtimoiy ta'lim tushunchasini alohida ko'rsatib o'tadilar. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- umumiy ijtimoiy ta'lim, avvalo, umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga maqsadli ta'sir ko'rsatishni ko'zlaydi;
- u kelgusida ijtimoiy sohani tanlaydiganlar uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi hamda shaxsning o'z pedagogik faoliyatini ongli ravishda tanlashiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kompetensiyaning ilmiy-nazariy talqinlari uning pedagogik jarayondagi o'rnini aniqlashtirish, bo'lajak pedagoglarda mazkur kompetensiyaning rivojlantirish mexanizmlarini belgilash uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, ijtimoiy bilimlarning keng ko'lamda talqin etilishi bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida ijtimoiy faollik, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy moslashuvchanlik va axloqiy mas'uliyat kabi sifatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, bo'lajak pedagoglarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash, ta'lim sifati va samaradorligiga erishish jarayonida albatta kreativ kompetensiyaga ega yoshlar va ularning amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan zarurat ekanligiga ishonch hosil qilindi.

Shu bilan birga, ta'limning strategik vazifalarini hal qilish, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha metodik va amaliy yechimlarni izlash dolzarb va katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish nafaqat shaxsning kasbiy rivojlanishi, balki jamiyatda samarali muloqot, ijtimoiy moslashuv va axloqiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar orqali bo'lajak pedagoglarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tizimining sifatini oshirish va zamonaviy kasbiy talablarni qondirishda asosiy vosita sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022-yil 28-yanvar. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
2. N.A.Muslimov, M.B.Urazova va Sh.N.Eshpulatov Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 16.
3. V.V.Serikov Obuchenie kak vid pedagogicheskoy deyatelnosti: uchebnoe posobie dlya studentov vysshikh uchebnykh zavedeniy. – M.: Akademiya, 2008. – B. 134.
4. L.N.Vasilieva Ijtimoiy kompetentsiya va pedagogik faoliyat: nazariy va amaliy aspektlar. – T.: Science Press, 2015. – B. 55-62.
5. D.Tursunova, The concept of social activity and its importance in social development. In international scientific and current research conferences 84-87, –2021.
6. D.Tursunova, Public activities and its persons. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 127-130, –2022.
7. N.Abdurahmonova, Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy ongning roli. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, –2021.
8. D.Toshpulatov Pedagogik faoliyatda ijtimoiy kompetentsiyaning roli va rivojlantirish metodlari. – T.: Science Press, 2016. – B. 32-40.
9. S.Karimova Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari. – T.: Fan va ta'lim, 2019. – B. 56-63.
10. F.Bo'ronov Oliy ta'limda ijtimoiy-pedagogik kompetentsiyani shakllantirish texnologiyalari. – T.: Pedagogika, 2017. – B. 21-29.